



UDC: 371.124:37.014.5

Sherzod MUXAMEDOV,
Mustaqil tadqiqotchi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: shnmuxamedov@gmail.com

Phd, dotsent E.Murodov taqrizi asosida

REGULATORY AND METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR QUALITY MANAGEMENT IN SCHOOL EDUCATION

Annotation

This article provides a systemic and conceptual analysis of the regulatory, legal, and methodological foundations of school education quality management. In the context of modernization of general secondary education, the study substantiates the implementation of a results-oriented management model, strategic planning, and institutional mechanisms of monitoring and evaluation. The findings contribute to the scientific and methodological framework for improving school education as an open, self-developing socio-pedagogical system aimed at fostering competitive human capital.

Keywords: education quality, educational management, regulatory framework, strategic governance, monitoring, competency-based approach, human capital.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЕ И МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье системно и концептуально проанализированы нормативно-правовые и методические основы управления качеством школьного образования. В условиях модернизации системы общего среднего образования обоснована необходимость внедрения результат-ориентированной модели управления, стратегического планирования, институциональных механизмов мониторинга и оценки. Полученные выводы определяют научно-методологические основы совершенствования школьного образования как открытой, саморазвивающейся социально-педагогической системы и формирования конкурентоспособного человеческого капитала.

Ключевые слова: качество образования, образовательный менеджмент, нормативно-правовое обеспечение, стратегическое управление, мониторинг, компетентностный подход, человеческий капитал.

МАКТАБ ТА'ЛИМИ СИФАТИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕҶОРИЙ ВА МЕТОДИК ТА'МИНОТИ

Аннотация

Mazkur maqolada maktab ta'limi sifatini boshqarishning me'yoriy-huquqiy va metodik ta'minoti tizimli hamda konseptual yondashuv asosida tahlil etilgan. Umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruvning natijaga yo'naltirilgan modeli, strategik rejalashtirish, monitoring va baholash mexanizmlarining institutsional asoslari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada maktab ta'limini ochiq, o'z-o'zini rivojlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida takomillashtirish hamda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim menejmenti, normativ-huquqiy ta'minot, strategik boshqaruv, monitoring, kompetensiyaviy yondashuv, inson kapitali.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida umumiy o'rta ta'lim tizimini institutsional va konseptual jihatdan modernizatsiya qilish davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Global raqobatning keskinlashuvi, bilimlar iqtisodiyotining jadallashuvi hamda raqamli transformatsiyaning chuqurlashuvi sharoitida inson kapitali sifat ko'rsatkichlari mamlakatning barqaror va inkluziv rivojlanishini ta'minlovchi hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktab ta'limiga tizimli investitsiyalarni jalb etish, uning boshqaruv arxitekturasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta qurish hamda natijadorlikka yo'naltirilgan menejment modelini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylandi.

Mazkur jarayon ta'lim sifatini oshirish, boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini kuchaytirish, pedagogik innovatsiyalarni institutsional qo'llab-quvvatlash orqali tizimning barqaror funktsionalligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv muhitini

shakllantirish, boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish hamda ta'lim natijalarini monitoring va baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish ushbu modernizatsiyaning metodologik poydevorini mustahkamlaydi. Natijada umumiy o'rta ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi, innovatsion rivojlanishni rag'batlantiruvchi va milliy taraqqiyot strategiyasining uzviy tarkibiy qismi sifatida takomillashib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruv jarayonini empirik yondashuvdan tizimli-analitik va natijaga yo'naltirilgan modelga transformatsiya qilishni taqozo etadi. Bu transformatsiya boshqaruv faoliyatining intuitiv yoki an'anaviy tajribaga tayangan shakllaridan voz kechib, ilmiy asoslangan, dalillarga tayanuvchi va o'lchanadigan natijalarni ko'zda tutuvchi boshqaruv paradigmasini qaror toptirishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan maktabni

boshqarish – bu strategik maqsadlarni belgilash, inson va moddiy resurslarni optimal taqsimlash, pedagogik jarayonni ilmiy rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va uning natijalarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan integrativ faoliyatdir.

Mazkur boshqaruv modeli ta'lim sifatini baholashning ko'p mezonli tizimini joriy etish, boshqaruv qarorlarini monitoring natijalari asosida qabul qilish hamda pedagogik jarayon samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishni ta'minlaydi. Shu jihatdan, maktab boshqaruvi nafaqat tashkiliy faoliyat, balki ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantiruvchi va institutsional o'sishni rag'batlantiruvchi murakkab boshqaruv tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv maktabni ochiq, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi hamda uning barqaror innovatsion rivojlanishiga metodologik zamin yaratadi.

Maktab ta'limi sifatini boshqarishning meyoriy-ta'minoti masalasi davlat ta'lim siyosatining huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu jarayonni ilmiy-huquqiy jihatdan asoslashda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'lim tizimi faoliyatining umumiy prinsiplari, ta'lim sifati ustidan davlat nazoratining mexanizmlari hamda vakolatli organlarning mas'uliyatini belgilab beradi[1]. Mazkur Qonunda ta'lim sifati ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish, davlat ta'lim standartlariga muvofiqlikni ta'minlash, ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash hamda akkreditatsiya qilish tartiblari huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Bu esa maktab ta'limi sifatini boshqarishni normativ asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni umumiy o'rta ta'limni strategik modernizatsiya qilish, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash va sifatini baholash tizimini xalqaro mezonlar bilan uyg'unlashtirish vazifalarini belgilaydi [2]. Ushbu konseptual hujjatda ta'lim sifatini baholashning ustuvor yo'nalishlari, samaradorlik indikatorlari hamda institutsional islohotlarning bosqichma-bosqich mexanizmi nazarda tutilgan bo'lib, u maktab ta'limi boshqaruvinin natijaga yo'naltirilgan modelga o'tkazishni maqsad qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" 2018 yildagi 997-sonli qarori milliy ta'lim tizimini xalqaro baholash dasturlari PISA, TIMSS va boshqalar bilan integratsiyalash orqali ta'lim sifatini obyektiv va qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan[3]. Mazkur qaror maktab ta'limi natijalarini xalqaro standartlar asosida o'lchash, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ta'lim siyosatida dalillarga tayangan (evidence-based policy) yondashuvni joriy etishning huquqiy asosini belgilaydi.

Ushbu hujjatlar ta'lim sifati monitoringi, baholash, hisobdorlik va strategik boshqaruv tizimini institutsional jihatdan mustahkamlab, umumiy o'rta ta'limni barqaror rivojlantirish hamda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim sifati masalasi XXI asrda global taraqqiyotning ustuvor indikatorlaridan biri sifatida namoyon bo'lib, rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining strategik yo'nalishiga aylandi. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiyoti va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish sharoitida ta'lim sifati milliy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va innovatsion taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish faqat mazmun va texnologiyalarni yangilash bilan cheklanmasdan, balki uni boshqarishning

institutsional va konseptual asoslarini takomillashtirishni ham talab etadi.

Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasida islohotlarning samaradorligi, avvalo, boshqaruv paradigmasining ilmiy asoslanganligi, strategik rejalashtirishning aniqligi va hisobdorlik mexanizmlarining mukammalligi bilan belgilanadi. Ta'lim boshqaruvida yangi tamoyillarni joriy etish – ya'ni natijaga yo'naltirilgan menejment, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making), ichki va tashqi monitoring tizimini integratsiyalash – ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikka xizmat qiluvchi boshqaruv modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Jahon hamjamiyati va MDH davlatlari olimlari tomonidan ta'lim sifati va uni boshqarish muammosi turli nazariy yondashuvlar doirasida tahlil qilingan. Ayrim tadqiqotlarda ta'lim sifati asosan natijaviy ko'rsatkichlar — akademik yutuqlar va xalqaro baholash indikatorlari orqali izohlansa, boshqa yondashuvlarda ta'limning ijtimoiy samarasi, shaxsning kompetensiyalari va qiymat yo'nalishlari bilan bog'liq kompleks kategoriya sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, MDH mamlakatlari olimlari ta'lim boshqaruvida markazlashgan va detsentralizatsiyalashgan modellar samaradorligini qiyosiy tahlil qilib, institutsional islohotlarning mazmun-mohiyati yuzasidan ilmiy munozaralarni ilgari surmoqdalar. Jumladan, Amerikalik olim Edwards Deming "Sifat – bu bir martalik harakat emas, balki tizimli fikrlashga asoslangan uzluksiz takomillashtirish jarayonidir" [4] deya ta'kidlasa, "Quality trilogy" nazariyasini ilgari surgan olim Josep Juran "Sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish – sifat menejmentining uch asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi" deb ushbu fikrlarni yana bir bor ta'kidlaydi[5].

A.S.Krasikov ta'lim muassasasi rahbarining mehnat samaradorligini baholash – bu yuqori turuvchi organlar tomonidan o'ziga bo'ysunuvchi tashkilotning yuqori ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlash uchun qo'llaniladigan vositalarning birigina xolos, deydi. U, shuningdek, ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash uchun yuqori tashkilot rahbarlari natijalarning qanday darajasi belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlashlari lozimligini ham ta'kidlaydi[6]. A.S.Krasikov ta'kidlaganidek, ta'lim muassasasi rahbarining mehnat samaradorligini baholash mustaqil maqsad emas, balki yuqori turuvchi boshqaruv organlari tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv instrumentidir.

"Ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini turli ko'rsatkichlar orqali baholashi mumkin. Bir tomondan, ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash faqat boshqaruvga doir ko'rsatkichlar bilan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat, tartibga solish, boshqaruv apparati ta'minoti uchun nisbatan kam xarajat qilish va hokazo. Ikkinchi tomondan, boshqaruv samaradorligi ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonlarning o'zgarish dinamikasi, resurslarning natijaviyligi, o'tkazilayotgan islohotlarning har bir shaxs uchun ta'sir darajasiga bog'liq"[7]. Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligini pedagogik jarayonlar rivoji, ta'lim sifati dinamikasi, resurslarning natijaviyligi va islohotlarning inson omiliga ta'siri orqali baholash uning mazmunan chuqurroq va strategik mohiyatini namoyon etadi. Bunda boshqaruv faqat ma'muriy faoliyat emas, balki ta'lim tizimida sifat o'zgarishlarini ta'minlovchi yetakchilik mexanizmi sifatida qaraladi.

Ta'lim muassasini boshqarishda rahbarning psixologik xususiyatlarining ta'lim sifatiga ta'siri haqida quyidagicha

fikrlar mavjud "Rahbar boshqaruvini o'rganish psixologiyada standartlashtirilgan metodikalardan foydalanilgan holda empirik tadqiqotlar o'tkazishni taqazo etadi. Shuning uchun rahbarning kommunikativ sifatlarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichiga o'rganishga asoslangan tadqiqotlar murakkab jarayon hisoblanadi" [8].

Mazkur ilmiy bahslar ta'lim sifati tushunchasining ko'p qirrali va interdissiplinar xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Zero, ta'lim sifati faqat pedagogik kategoriya emas, balki boshqaruv, iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya kabi fanlar kesishmasida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy fenomendir. Shu bois u nafaqat o'quv natijalari bilan, balki ta'lim muhitining institutsional barqarorligi, boshqaruv samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlari bilan ham uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Shuning uchun maktab ta'limi sifati ta'minlash muammosini tadqiq etishda tizimli, integrativ va dalillarga asoslangan metodologik yondashuvni qo'llash zarur. Bunday yondashuv ta'lim jarayonining barcha tarkibiy elementlarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish, sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash hamda boshqaruv qarorlarini empirik ma'lumotlar asosida asoslash imkonini beradi. Natijada ta'lim sifati nafaqat nazariy konsepsiya, balki amaliy boshqaruv mexanizmlarida o'z ifodasini topuvchi dinamik rivojlanish ko'rsatkichi sifatida talqin etiladi.

Mazkur tadqiqot maktab ta'limi sifati boshqarishning me'yoriy-huquqiy va metodik ta'minotini tizimli hamda integrativ yondashuv asosida chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv ta'lim sifati boshqarish jarayonining normativ asoslari, tashkiliy mexanizmlari va metodik vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, ularning funksional uyg'unligini baholash hamda amaliy samaradorligini ilmiy asosda izohlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida sifati ta'minlash va boshqarish jarayoni faqat pedagogik jarayonni takomillashtirish bilan cheklanmay, balki institutsional

boshqaruv mexanizmlarini, normativ-huquqiy bazani, strategik rejalashtirish hamda monitoring va baholash tizimini kompleks modernizatsiya qilishni talab etadi.

Shu jihatdan, ta'lim sifati boshqarish ko'p darajali va ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'lib, unda boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda natijadorlik indikatorlarining aniqligi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur modernizatsiya jarayoni boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini kuchaytirish, ta'lim natijalarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi institutsional shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltiriladi. Natijada maktab ta'limi sifati boshqarish tizimi strategik rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi, o'zini o'zi takomillashtiruvchi va dalillarga asoslangan boshqaruv modeli sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limi sifati boshqarishning me'yoriy va metodik ta'minotini takomillashtirish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, xalqaro mezonlarga mos raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish hamda bilimlar iqtisodiyoti sharoitida milliy taraqqiyotning strategik maqsadlariga erishishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon ta'lim boshqaruvini samaradorligini oshirish, sifati ta'minlashning institutsional mexanizmlarini mustahkamlash hamda ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy, dalillarga asoslangan tizimini joriy etish orqali tizimning ichki barqarorligi va moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, me'yoriy-huquqiy asoslarning izchil takomillashtirilib va metodik ta'minotning ilmiy jihatdan boyitilishi ta'lim jarayonining strategik boshqaruvini ta'minlab, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada maktab ta'limi sifati jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi, innovatsion rivojlanishni rag'batlantiruvchi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqaror omiliga aylanuvchi tizimli mexanizm sifatida qaror topadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RBQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi 28-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" 997-sonli qarori.
4. Deming W.Y. Out of the Crisis. MIT Press, 1986. – 94 p.
5. Juran J.M. Juran on Planning for Quality. Free Press, 1988. – 3 p.
6. Красиков А.С. Оценка качества труда руководителя сферы образования. Учебное пособие. Российская академия образования, Вологодский Институт развития образования. – Санкт-Петербург, 2006. – С. 38-43.
7. Matkarimov J.SH., Sharofaddinov Sh.A. ta'lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar. Zamonaviy ta'lim 2015 y, № 3. – 14 b.
8. Nizamova Sh.I. Ta'lim muassasalari boshqarishning pedagogik-psixologik omillari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023 y, № 9. – 209 b.